

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MADAMINOVA GULMIRAXON IKROMALIYEVNA

**SANOAT CHANGLARINI HO‘L USULDA TOZALOVCHI
BARABANLI QURILMANI TAKOMILLASHTIRISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**02.00.16 – “Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari” ixtisosligi bo‘yicha**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Содержание диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)

Madaminova Gulmiraxon Ikromaliyevna

Sanoat changlarini ho‘l usulda tozalovchi barabanli qurilmani takomillashtirish va parametrlarini asoslash3

Мадаминова Гулмирахон Икромалиевна

Совершенствование и обоснование параметров барабанного устройства для очистки промышленной пыли мокрым способом21

Madaminova Gulmirakxon

Improvement and justification of parameters of a drum device for cleaning industrial dusts in a wet method39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список использованной литературы

List of published works.....43

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MADAMINOVA GULMIRAXON IKROMALIYEVNA

**SANOAT CHANGLARINI HO‘L USULDA TOZALOVCHI
BARABANLI QURILMANI TAKOMILLASHTIRISH VA
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**02.00.16 – “Kimyo texnologiyasi va oziq-ovqat ishlab chiqarish jarayonlari va
apparatlari” ixtisosligi bo‘yicha**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4123 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Tojiyev Rasuljon Jumaboyevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirova Shaira Narmuradovna
texnika fanlari doktori, professor

Primov To'ychi Jumayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengash 2025 yil «11» oktyabr soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 234-14-85, faks: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz Namangan davlat texnika universiteti, 6- bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 303- xona).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (64-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 234-14-85.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «24» sentyabr tarqatildi.
(2025-yil «24» sentyabrdagi 34-raqamli reestr bayonnomasi).

O.K.Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

O.T.Mallabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, k.f.f.d., dots.

O.Yu.Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash asosidagi bir martalik
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sanoatni jadal rivojlanishi natijasida atmosferaga katta miqdorda korxonalarda hosil bo'layotgan chang, ikkilamchi gazlar va turli chiqindilar, zararli gaz aralashmalari yetarli darajada tozalanmasdan atmosferaga chiqarib yuborilishi oldini olish vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida hosil bo'layotgan chang hamda zararli gazlar atmosferaning yuqori qatlamlarida to'planib qolishi natijasida atrof-muhitga katta miqdorda havf tug'dirmoqda, shu sababli ishlab chiqarish korxonalariga yaqin xududlardagi atmosfera havosini turlicha chang va zararli moddalardan tozalashning zamonaviy qurilmalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan ushbu yo'nalishda havo tozalash jarayonlarini amalga oshirish uchun tuzilishi sodda va energiya tejamkor qurilmalar yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda atmosferani hosil bo'layotgan qattiq, mayda chang zarrachalari, ikkilamchi gazlar va turli chiqindilardan tozalash, takomillashtirilgan tozalash qurilmalari yaratish, energiyatejamkor texnologiyalar asosida ularning ish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, chang, ikkilamchi gazlar va turli chiqindilar tozalash jarayonlarini samarali tashkil etish, ushlab qolingani massani chuqur qayta ishlash texnologiyalarini yaratish kabi ustuvor yo'nalishlarda bajarilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda atmosfera havosini zararli chang, ikkilamchi gazlar va turli chiqindilardan tozalash jarayonlarini jadallashtirish hamda ushlab qolingani komponentlarni qayta ishlashni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda innovatsion texnologiyalarni sanoat amaliyotiga joriy etish, oziq-ovqat, kimyo va qurilish materiallari ishlab chiqarish, paxta sanoati changli havosini, oqova ikkilamchi suvlarni tozalashning texnologik jarayoni va qurilmalarini yaratishga yo'naltirilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida «Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish¹» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, atmosfera havosini zararli chang, ikkilamchi gazlar va turli chiqindilardan tozalash jarayonini takomillashtirish va yuqori samarali qurilmalar yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son «2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi, 2018 yil 3 oktabrdagi PQ-3956-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari va Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 noyabrdagi 958-son «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy tadqiqot bazasini

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori, 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-sonli "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Changli gazlarni ho'l usulda tozalovchi qurilmalarni yaratish, takomillashtirish va ularning ish rejimlarini o'rganish, parametrlarini asoslash hamda sanoatga qo'llash, shuningdek qurilma gidravlik qarshiligining tozalash samaradorligi hamda energiya sarfiga ta'sirni o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari K.T. Semrau, C. Hah (AQSh), A.C. Bryans (Angliya), Z. Moussa (Malayziya), M.E. Tomsho (Yaponiya), G. Bache (AQSh), N. Andersen, F. Nielsen, J.H. Walthe (Angliya), Hassan Ali (Avstraliya), B. Brayshneyder, Ya.M. Braynes, A.Yu. Valdberg (Germaniya) kabi yetakchi olimlari tomonidan olib borilgan.

Ushbu yo'nalish bo'yicha MDH davlatlari olimlaridan П.А.Каузов, В.В. Варваров, Э.С. Нечаева, И.А. Радионов, В. Стравус, В.Н. Ужов, Н.В. Ватузов, О.С. Кочетов, Е.В. Сугак, С.В. Анискин, В.С. Швыдский, А.Ф. Сорокопуд, М. Кавашнин, К.С. Полотников, В.А. Мамонтовский, В.В. Колотушкин, В.Ф. Бабкин, Б.С. Сажин va boshqalar sanoat korxonalarida changli gazlarni tozalashda qo'llaniladigan barcha qurilmalarning turlari, ishlash prinsiplari va ularning tozalash samaradorligini oshirish bo'yicha salmoqli ishlar olib borgan.

Mamlakatimizning yetakchi olimlari G.M.Aliev, R.R.Usmanova, Z.S.Salimov, B.A. Alimatov, A.M. Xurmamatov, N.X. Yuldashev, I.T. Maqsudov, R.J. Tojiev, I.T. Karimov, A.S. Isomiddinov, N.A. Ergashev va boshqalar changli gazlarni ho'l usulda tozalash qurilmalarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarida tadqiqot ishlari olib borishmoqda.

Shu bilan birga kimyo, oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoatiga mo'ljallangan, ixcham, arzon va eksportga mo'ljallangan havoni chiqindilardan tozalash texnologiyalari va mashinalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №552 "Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida hosil bo'ladigan changlarni tozalash" (22.02.2022y) hamda "TURON ECO CEMENT GROUP" MChJ korxonasi bilan tuzilgan NIS-5421 «Korxonada sexlaridan chiqayotgan changli gazlarni tozalovchi apparatlar yaratish, tadqiq qilish va amaliyotda qo'llash» mavzusidagi ho'jalik shartnomalari doirasida bajarilgan (2021-2024 yillar).

Tadqiqotning maqsadi ho‘l usulda chang tozalovchi qurilmani takomillashtirilgan konstruksiyasini yaratish va uning ishchi parametrlarini asoslash hamda ishlab chiqarishga qo‘llashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

changli gazning hosil bo‘lishi sabablari va atrof-muhitga ta’sirini o‘rganish;
changli gazlarni ho‘l usulda tozalovchi zamonaviy qurilmalarining konstruksiyalari tahlili bo‘yicha izlanishlar olib borish;

izlanishlar va tahlillar asosida changli gazlarni ho‘l usulda tozalovchi barabanli qurilmaning yangi konstruksiyasini yaratish va fizik modelini tayyorlash;

qurilmaning mahalliy va ishchi organlaridagi qarshilik koeffitsientlarini aniqlash;

qurilma ishchi organlarining gidravlik qarshiliklarini aniqlash;

qurilma gidravlik qarshiligining tozalash samaradorligi va energiya sarfiga ta’sirini aniqlash;

tajriba natijalariga matematik rejalashtirish usulini qo‘llab qurilma parametrlarining maqbul qiymatlarini asoslash;

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekiston tumanidagi “TURON ECO CEMENT GROUP” MChJ korxonasi tuproqni quritish sexida hosil bo‘ladigan changlar hamda setka barabanli qurilma olingan.

Tadqiqotning predmeti ho‘l usulda chang tozalovchi takomillashtirilgan qurilma va unda atmosfera havosini changli gazlardan tozalash jarayonining gidrodinamik parametrlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda tajribalarni rejalashtirish, eksperimental ma’lumotlarni kompyuterda qayta ishlash, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi regressiya tenglamalari “PLANEX” programmasining HARTLI-4 dasturi bo‘yicha olingan, texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish hamda o‘lchashning aniq usullari va zamonaviy o‘lchov-nazorat asboblardan foydalanib tajribalar o‘tkazishning umume’tirof etilgan va sinalgan usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilmaga o‘rnatilgan barabanli setkalarining kvadrat teshik o‘lchamlari bo‘yicha qarshilik koeffitsientlari $a=0,6$ mmda $\xi_s=1,65$; $a=0,8$ mmda $\xi_s=1,45$, $a=1,0$ mmda $\xi_s=1,25$ va setkalarining qarshilik koeffitsientlarini hisoblashdagi tuzatish koeffitsienti qiymati $\Delta II=1,15$ ga tengligi aniqlangan va qarshilik koeffitsientini hisoblash uchun empirik tenglama olingan;

changli gaz va suyuqlik oqimlari rejimlarida gidravlik qarshiliklari va gidravlik qarshiligini tozalash samaradorligiga ta’siri aniqlangan, setka o‘lchami $a=0,6$ mmda, gidravlik qarshilikning $\Delta P=54\div 798$ Pa oralig‘ida, suyuqlik sarfi $Q_s=0,3$ m³/soatda, tozalash samaradorligi $\eta=99,9\div 99,5\%$ ni tashkil etgan va $RECHM=6$ mg/m³ dan kichik qiymatlargacha tozalanishi aniqlangan;

matematik rejalashtirish usuli orqali, qurilmaning maqbul parametrlari aniqlanganda, filtrlovchi setka kvadrat teshigi o‘lchami $a=0,6$ mm, changli gaz tezligi $w_z=12,4$ m/s, suyuqlik sarfi $Q_s=0,3$ m³/soat bo‘lganda energiya sarfi 1,4

kVt/soat, tozalash samadorligi 99,8% va gidravlik qarshiligi 700 Pa qiymatlari aniqlangan;

qurilmaning tozalash samadorligi mavjud qo'llanilayotgan siklonga nisbatan 20% va xo'l usulda ishlovchi skrubberga nisbatan 4,9% gacha ortishi isbotlangan, zavodda 1m³ havoni tozalash uchun sarflanadigan suyuqlik 5 barobarga, elektr energiyasi 2,5 barobarga kam sarflanishiga erishilgan va shu asosida qurilmani takomillashtirilgan yangi konstruksiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilmaning gidrodinamik jarayonlari bo'yicha nazariy tadqiqotlar olib borilgan va umumiy gidravlik qarshiligi va qarshilik koeffitsientlarini hisoblovchi tenglamalar olingan;

qurilmada harakatlanayotgan changli gaz oqimi va unga perpendikulyar holatda sepilayotgan suyuqlik o'rtasidagi kontakt yuzani oshirish maqsadida o'rnatilgan setkali kontakt elementiga changli gaz oqimini bir tekisda taqsimlash va sepilayotgan suyuqlikni tomchilarga maydalash yo'li bilan tozalash samadorligi aniqlangan;

tuproq changini ho'l usulida tozalash jarayonida qurilmaning tozalash samadorligiga texnologik, konstruktiv va gidrodinamik parametrlarining ta'siri bo'yicha keng qamrovli tajribaviy natijalar olingan;

changli gazlarni ho'l usulda tozalash jarayonida qurilmaning gidrodinamik ish sharoiti uchun ishchi parametrlarining maqbul qiymatlari aniqlangan;

setka barabanli kontakt elementi bilan ta'minlangan qurilmaning yangi, ish unumdorligi va tozalash samadorligi yuqori va barqaror gidrodinamik rejimda ishlovchi ixcham konstruksiyasi yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, barabanli qurilmaning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda gidravlika, gidrodinamika, fizika, kimyo, matematik statistika uslublari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida takomillashtirilgan qurilmada tajriba sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati barabanli qurilmada kam energiya sarflagan holda yuqori tozalash samadorligini ta'minlovchi parametrlari asoslanganligi hamda olingan matematik modellar va analitik bog'lanishlardan shu turdagi qurilmalarning parametrlarini asoslashda qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taxlillar asosida barabanli qurilmaning takomillashgan konstruksiyasni yaratilganligi, uning ish organlaridagi mahalliy qarshilik koeffitsienti va tenglamasi, ular asosida gidravlik qarshilikni hisoblash tenglamasi tavsiya etilganligi, energiya sarfi hamda tozalash samadorligi aniqlanganligi va ularni amaliyotga qo'llash uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Barabanli qurilmada kam energiya va suyuqlik sarflagan holda yuqori tozalash samadorligini ta'minlash bo'yicha olingan natijalar asosida:

ho‘l usulda chang tozalovchi qurilmani loyixa konstruktorlik hujjatlari, apparatning sanoat qurilmasini tayyorlash texnologiyasi “TURON ECO CEMENT GROUP” MChJ korxonasi “2025-2030 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati” ga kiritilgan (O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2025 yil 25-avgustdagi 02/15-2795-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, qurilmani ishlatish orqali zavodda 1m³ havoni tozalash uchun sarflanadigan suyuqlik 5 barobarga, elektr energiyasi 2,5 barobarga kam sarflanishi imkonini bergan.

changli gazlarni tozalash qurilmasining yangi konstruksiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” Davlat muassasasi tomonidan foydali modelga patent olingan (FAP №2584. 2024 y). Natijada, “TURON ECO CEMENT GROUP” MChJning tuproq (suglinka) ni quritish jarayonida hosil bo‘ladigan changlarni RECHM talablari darajasida tozalash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib shulardan, 2 ta foydali modelga patent, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya xajmi 102 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Changli gazlarni ho‘l usulda tozalovchi qurilmalar konstruksiyalarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida ekologik muammolar va atmosfera havosini ifloslanishiga sanoat korxonalarining ta‘siri, gaz tozalash apparatlarining tozalash samaradorligini oshirish muammolari, hozirgi kunda sanoatda qo‘llanilayotgan ho‘l usulda chang tozalovchi qurilmalarning konstruksion tuzilishi va ishlash prinsiplari o‘rganilib tahlil qilingan. Tahlillar natijasida ularning asosiy kamchiliklari keltirilgan. Shundan kelib chiqib kamchiliklari bartaraf qilingan, gazlarni ho‘l usulda tozalovchi barabanli qurilmani yangi konstruksiyasi yaratilgan va bu qurilmaning konstruksion tuzilishi va ishlash prinsipi keltirilgan. Ilmiy-tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «Barabanli qurilma gidrodinamikasining nazariy asoslari» deb nomlangan ikkinchi bobida taklif etilayotgan qurilmaning gidrodinamik parametrlarini aniqlash bo'yicha nazariy tadqiqot ishlari olib borilgan. Quyida olib borilgan nazariy tadqiqotlar keltirilgan.

Qurilmani hisoblash sxemasi 1-rasmda keltirilgan bo'lib, I-I kesimi bo'yicha qurilmadagi umumiy yo'qotilgan bosimni quyidagicha yozish mumkin, Pa;



1-rasm. Barabanli qurilmaning hisob sxemasi

$$\Delta P_{um} = P_1 + P_2 + P_3, \quad (1)$$

bunda P_1 -qurilmaga changli havoni quvur orqali uzatishda, ichki ishqalanish ta'sirida yo'qotilgan bosim bo'lib Darsi-Veysbaxa formulasi bo'yicha quyidagicha aniqlanadi, Pa ;

$$P_1 = \lambda_1 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho_{ar} \cdot \frac{\omega_{ar}^2}{2}, \quad (2)$$

bunda λ_1 -changli gazni qurilmaga uzatuvchi quvur devori bilan ishqalanish koeffitsienti, l -changli gaz harakatlanayotgan quvur uzunligi, m; d -quvur diametri, m; ρ_{ar} - chang va havo aralashmasi zichligi, kg/m^3 ; ω_{ar} -quvurda harakatlanayotgan changli havo aralashmasi tezligi, m/s.

Aralashma zichligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\rho_{ar} = \rho_g + (\rho_{ch} \cdot \gamma) \quad (3)$$

bunda ρ_g -havo zichligi, kg/m^3 ; ρ_{ch} -chang zichligi, kg/m^3 ; γ -havo tarkibidagi chang ulushi, %.

Ishqalanish koeffitsienti λ changli gazni trubada oqish rejimlariga bog'liq bo'lib, laminar rejim uchun, $Re \leq 2320$ bo'lganda quyidagicha aniqlanadi.

$$\lambda = \frac{64}{Re}, \quad (4)$$

Oqim rejimi $2320 < Re < 4000$ bo'lganda quyidagicha aniqlanadi.

$$\lambda = 0,0025 R_e^{0,333} \quad (5)$$

Silliqlik trubalar uchun $4000 < Re < 10000$ bo'lganda quyidagicha aniqlanadi.

$$\lambda = \frac{0,3164}{R^{0,25}} \quad (6)$$

P_2 -changli gazni baraban setka teshiklaridan o'tishidagi yo'qotilgan bosim P_2 (Pa) bo'lib, quyidagicha aniqlanadi, Pa;

$$P_1 = \xi_s \frac{\rho_{ar} \cdot \omega_{ar}^2}{2}, \quad (7)$$

bunda ω_{ar} -changli havo aralashmasini baraban setkasi yuzasida harakatlanish tezligi, m/s; ξ_s – baraban setkasining qarshilik koeffitsienti bo'lib, quyidagicha aniqlanadi. 1-rasmdan A-A kesim bo'yicha satkali barabanni doimiy yuvilishi uchun pastki qismida vanna hosil qalinadi va vannadagi suyuqlik α burchak bo'yicha sathga ega bo'ladi. Baraban setkasining umumiy qarshilik koeffitsienti setkadan changli havo o'tadigan yuzasiga bog'liq holda quyidagicha aniqlanadi.

$$\xi_s = \Delta \Pi \frac{\sum S_s \cdot \delta}{\sum S_s \cdot a}, \quad (8)$$

bunda $\Delta \Pi$ -to'g'rilash koeffitsienti bo'lib, tajribalar orqali aniqlanadi, $\sum S_s$ - setkaning umumiy yuzasi, m²; δ -setka simi qalinligi, m; a -setkaning kvadrat teshik o'lchamlari, m. Barabanga to'shaladigan setka teshiklari o'lchamlarining optimal qiymatlari tajribalar orqali aniqlanadi.

Changli havo o'tadigan setka qismini aniqlash uchun 1-rasmdan α burchak bo'yicha setka aylanasining suyuqlikka botgan qismi yoyi uzunligini aniqlab, umumiy uzunligidan ayiramiz va baraban uzunligiga ko'paytirib umumiy yuzasini topamiz. Suyuqlikka botgan qismi yoyi uzunligi l_d (m) quyidagicha aniqlanadi, m.

$$l_d = R \frac{\alpha \cdot \pi}{180} \quad (9)$$

bunda R - setkali baraban radiusi, m; $\pi=3,14$ radian o'lchovi.

Baraban setkasining changli havo o'tadigan umumiy ishchi yuzasi quyidagicha aniqlanadi, m².

$$\sum S_s = l_{um} - R \frac{\alpha \cdot \pi}{180} \cdot l_1 \quad (10)$$

Tozalangan havoni qurilmadan chiqaruvchi quvurda ichki ishqalanish ta'sirida yo'qotilgan bosim P_3 ham Darsi-Veysbaxa formulasi bo'yicha aniqlanadi, Pa.

$$P_3 = \lambda_2 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho \cdot \frac{\omega^2}{2} \quad (11)$$

bunda λ_2 -tozalangan havoni chiqarish quvuridagi ishqalanish koeffitsienti;, l -tozalangan havo harakatlanayotgan quvur uzunligi, m; d -quvur diametri, m; ρ -

tozalangan havo zichligi, kg/m³; ω -quvurda harakatlanayotgan tozalangan havo tezligi, m/s.

Endi 1 chi tenglikka (2), (7), (8), va (11) tengliklarni qo‘ysak, qurilmadagi umumiy yo‘qotilgan bosimni hisoblash tenglamasi quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$P_{um} = \lambda_1 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho_{ar} \cdot \frac{\omega_{ar}^2}{2} + \Delta\Pi \frac{\sum S_s \cdot \delta}{\sum S_s \cdot a} \cdot \frac{\rho_{ar} \cdot \omega_{ar}^2}{2} + \lambda_2 \cdot \frac{l}{d} \cdot \rho \cdot \frac{\omega^2}{2} \quad (12)$$

Apparatning nazariy umumiy qarshilik koeffitsienti quyidagiga teng bo‘ladi.

$$\xi_{um} = \xi_k + \xi_b + \xi_{ch} ; \quad (13)$$

bunda ξ_k - qurilmaga changli havoni quvur orqali uzatishda, ichki ishqalanish koeffitsienti bo‘lib quyidagicha aniqlanadi.

$$\xi_k = \lambda_1 \cdot \frac{l}{d} ; \quad (14)$$

bunda λ_1 -changli gazni qurilmaga uzatuvchi quvur devori bilan ishqalanish koeffitsienti, l -changli gaz harakatlanayotgan quvur uzungigi, m; d -quvur diametri, m;

ξ_{ch} - qurilmadan changli havoni quvur orqali apparatdan chiqarishda, ichki ishqalanish koeffitsienti bo‘lib quyidagicha aniqlanadi.


$$\xi_{ch} = \lambda_2 \cdot \frac{l}{d} ; \quad (15)$$

Yuqorida keltirilgan 13-formulaga 8,14,15-formulalar qiymatlarini qo‘ysak quyidagi ko‘rinishga keladi.

$$\xi_{um} = \lambda_1 \frac{l}{d} + \Delta\Pi \frac{\sum S_s \cdot \delta}{\sum S_s \cdot a} + \lambda_2 \frac{l}{d} ; \quad (16)$$

Ushbu formula orqali apparatning umumiy qarshilik koeffitsientlari aniqlanadi. Ushbu bobda qurilmaga sepilayotgan suyuqlik sarfi va tozalash samaradorligini aniqlash uslublari ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Barabanli qurilmaning tajriba qurilmasida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar**» deb nomlangan uchinchi bobida tajriba qurilmasining konstruksion tuzilishi, ishlash prinsipi va ishchi organlaridagi gidrodinamik jarayonlarini o‘rganishda o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqot natijalari keltirilgan. (2.1-rasm).



2.1. Umumiy ko‘rinishi

2.2. Setkalarining ko‘rinishi

2.3. Baraban ko‘rinishi

2-rasm. Barabanli qurilma, setka va baraban ko‘rinishlari

Apparatda yo‘qotilgan umumiy bosimni hisoblash uchun apparatni mahalliy qarshiliklarini va turli teshik o‘lchamlariga ega bo‘lgan barabanli setkalarining qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Uch xil o‘lchamdagi setkalar esa GOST 3826-82 X18N10T markali nerjaveykadan tayyorlangan (2.2-rasm). Qurilmaga changli havo

berishda GOST 5976-2020 VR-086-76 markali ventilatordan va suyuqlik berishda esa BSNM markali nasosdan foydalanildi.

Tajribalarni dastlabki bosqichida ventilatorning gazni soʻrish qismiga shiber (harakatlanuvchi toʻsqich) oʻrnatildi. Shiberni 30° ÷ 90° oraliqda (15° qadam bilan) oʻzgartirilib, ventilatordan chiqayotgan gaz tezliklari va unga bogʻliq holda gaz sarflari aniqlandi. Unga koʻra Shiber 30° ochilganda $Q_g=141$ m³/soat, 45° ga ochilganda $Q_g=282$ m³/soat, 60° ochilganda $Q_g=423$ m³/soat, 75° ochilganda $Q_g=564$ m³/soat, 90° ochilganda $Q_g=705$ m³/soatni tashkil etdi. Tajribalarning keyingi bosqichida apparat korpusiga ventilator oʻrnatildi va yuqorida aniqlangan gaz sarflari $Q=141$ ÷ 705 m³/soat (141 m³/soat qadam bilan) berilib, apparatdan chiqayotgan gaz tezliklari orqali gaz sarflari aniqlandi. Bu holatda Shiber 30° ochilganda $Q_g=106$ m³/soat, 45° ochilganda $Q_g=212$ m³/soat, 60° ochilganda $Q_g=321$ m³/soat, 75° ochilganda $Q_g=440$ m³/soat, 90° ochilganda $Q_g=550$ m³/soatni tashkil etdi. Gaz sarflari farqidan apparatni mahalliy qarshilik koeffitsienti aniqlandi. Apparatning mahalliy qarshilik koeffitsienti $\xi=0,35$ ni tashkil etdi. Tajribalarning keyingi bosqichida apparat korpusiga kvadrat teshik oʻlchami $a=0,6;0,8;1$ mm li setkalar ishchi barabanga toʻshalib, setkali baraban koʻrinishida korpusga ketma-ket oʻrnatildi va apparatga suv sepilmagan holatdagi umumiy gidravlik qarshiligi aniqlandi (2.3-rasm).

Oʻrnatilgan har bir setkali barabanga $Q=141$ ÷ 705 m³/soat (141 m³/soat qadam bilan) gaz berildi. Tajribalarda setkali barabanning aylanishlar chastotasini $n=15;20;25$ ayl/min, gaz zichligini $\rho_g=1,29$ kg/m³ (havo uchun) qiymatlarda tanlandi. Natijalarga koʻra setka oʻlchami $a=0,6$ mm, simi qalinligi $\delta=0,25$ mm boʻlganda umumiy qarshilik koeffitsienti $\xi_{um}=2$, teshik oʻlchami $a=0,8$ mm, simi qalinligi $\delta=0,325$ mm boʻlganda $\xi_{um}=1,8$; teshik oʻlchami $a=1$ mm, simi qalinligi $\delta=0,4$ mm boʻlganda $\xi_{um}=1,6$ ni tashkil etdi.


Qurilmaning umumiy qarshiligini hisoblovchi 16-formula quyidagi koʻrinishga keltirildi.

$$\xi_{um} = 0,35 + \Delta\Pi \frac{\sum S_s \cdot \delta}{\sum S_s \cdot a}; \quad (17)$$

Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib bogʻliqlik grafigi qurildi (3-rasm).

Olingan tajriba natijalariga va qilingan hisoblarga tayangan holda qurilma uchun tuzatish koeffitsienti qiymati aniqlandi va $\Delta\Pi=1,15$ deb tanlash tavsiya etildi.

Tajribalarning keyingi bosqichida apparat korpusiga setka oʻrnatilmagan va oʻrnatilgan holatda har biri uchun alohida suv sepilib tajribalar olib borildi. Gaz sarflari $Q_g=141$ ÷ 705 m³/soat (141 m³/soat qadam bilan) oʻzgarmas berildi. Tajribalarda setkali barabanning aylanishlar chastotasini $n=15;20;25$ ayl/min, gaz zichligini $\rho_g=1,29$ kg/m³ (havo uchun) qiymatlarda tanlandi.




3-rasm. $\Sigma S\delta/\Sigma S_a$ ga bog'lik holda qarshilik koeffitsienti ξ ning o'zgarish grafigi.

Har bir gaz sarflarida apparat setkali barabaniga 4 dona **S32-412** markali shtuserlardan $Q_s=0,075\div 0,3\text{m}^3/\text{soat}$ ($0,075\text{ m}^3/\text{soat}$ qadam bilan) suv sepildi. Tanlangan setkalarga sepilgan suvning har bir qadamida apparatdan chiqayotgan gaz sarflari aniqlandi. Gaz sarflari farqlari orqali apparatga suv sepilgan holatidagi har bir setkaning qarshilik koeffitsientlari va qurilmaning umumiy qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Bu o'tkazilgan tajribalarda setkali barabanni


aylanishlar chastotasini qarshilik koeffitsientlarini o'zgarishiga ta'siri sezilmadi. Shuning uchun tajriba natijalarida e'tiborga olinmadi. O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijasida qurilmaning ishchi organlarining mahalliy va umumiy qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Natijada, apparatning ishchi organlarida umumiy yo'qotilgan bosimni hisoblash uchun imkoniyat yaratildi.

Apparatning ishchi qismlaridagi umumiy yo'qotilgan bosimni aniqlash uchun yuqorida tajribaviy tadqiqotlar natijasida aniqlangan qurilmaning umumiy qarshilik koeffitsienlariga bog'liq holda, har bir rejim uchun umumiy yo'qotilgan bosimlarning tajribaviy va nazariy qiymatlari aniqlandi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi asosida qayta ishlanib grafik qurildi (4,5,6,7 va 8- rasmlar).




4-rasm. Gaz tezligiga bog'liq holda yo'qotilgan bosimni o'zgarishi. (suv sepilmagan holatda)


1. $a=0.6\text{mm}$; 2. $a=0.8\text{mm}$; 3. $a=1\text{mm}$; 4- setka o'rnatilmagan holat




5-rasm. Gaz tezligiga bog'liq holda yo'qotilgan umumiy bosimni o'zgarishi $Q_s=0,075\text{ m}^3/\text{soat}$



6-rasm. Gaz tezligiga bog‘liq holda yo‘qotilgan umumiy bosimni o‘zgarishi
 $Q_s=0,150 \text{ m}^3/\text{soat}$



7-rasm. Gaz tezligiga bog‘liq holda yo‘qotilgan umumiy bosimni o‘zgarishi
 $Q_s=0,225 \text{ m}^3/\text{soat}$




8-rasm. Gaz tezligiga bog‘liq holda yo‘qotilgan umumiy bosimni o‘zgarishi
 $Q_s=0,3 \text{ m}^3/\text{soat}$

1-setka kvadrat teshik o‘lchami $a=0,6 \text{ mm}$ bo‘lganda; 2-setka kvadrat teshik o‘lchami $a=0,8 \text{ mm}$ bo‘lganda; 3-setka kvadrat teshik o‘lchami $a=1 \text{ mm}$ bo‘lganda;


Changli gazni tozalash bo‘yicha o‘tkaziladigan tajribalarda tozalash vaqtini 5 minut qilib tanlandi. Bu vaqtda gaz sarflari $Q_g=141/12=11,75 \text{ m}^3/\text{soat}$; $Q_g=282/12=23,5 \text{ m}^3/\text{soat}$; $Q_g=423/12=35,25 \text{ m}^3/\text{soat}$, $Q_g=564/12=47 \text{ m}^3/\text{soat}$; $Q_g=705/12=58,75 \text{ m}^3/\text{soat}$ ni tashkil etadi.

Qurilmaga ushbu gaz sarflari berilganda qancha chang miqdori berilishi aniqlandi. Bu gaz sarflariga mos holda qurilmaga 5 minut davomida $G_{ch}=4 \div 20 \text{ g}$ (4gr qadam bilan) chang uzatildi. Changlar “ACZEL” firmasida ishlab chiqarilgan CU224C modelidagi elektron tarozida tortib olindi. Qurilmaning tozalash samaradorligini aniqlash uchun matoli filtr tayyorlandi. Bu matoli filtrni tayyorlashda meditsina dokasini diametri $D=150 \text{ mm}$ o‘lchamda qirqib olindi va ostki va ustki asos sifatida foydalanildi. Bu asoslar orasiga meditsina paxtasi to‘shalib tikildi va 30 dona filtr tayyorlandi. Bu filtrlar elektoron torozida tortib olindi va qurilmani tozalangan gazni chiqarish quvuriga o‘rnatilgan mahsus moslamasiga to‘shaldi.


Qurilmaga kvadrat teshik o‘lchami $a=0,6 \text{ mm}$, $a=0,8 \text{ mm}$, $a=1 \text{ mm}$ lli setkali barabanlar ketma-ket qurilmaga o‘rnatildi.




9-rasm. Suyuqlik sarfi Q_s ga bog‘liq holda, tozalash samaradorligi η ning o‘zgarishi. $\omega_g=5$ m/s.



10-rasm. Suyuqlik sarfi Q_s ga bog‘liq holda tozalash samaradorligi η ning o‘zgarishi. $\omega_g=10$ m/s.




11-rasm. Suyuqlik sarfi Q_s ga bog‘liq holda tozalash samaradorligi η ning o‘zgarishi. $\omega_g=15$ m/s.



12-rasm. Suyuqlik sarfi Q_s ga bog‘liq holda tozalash samaradorligi η ning o‘zgarishi. $\omega_g=20$ m/s.

1- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=0,6$ mm bo‘lganda; 2- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=0,8$ mm bo‘lganda; 3- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=1$ mm bo‘lganda;

1- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=0,6$ mm bo‘lganda; 2- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=0,8$ mm bo‘lganda; 3- Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=1$ mm bo‘lganda;



13-rasm. Suyuqlik sarfi Q_s ga bog‘liq holda tozalash samaradorligi η ning o‘zgarishi. $\omega_g=25$ m/s.

1. Setka kvarat teshigi o‘lchami $a=0,6$ mm bo‘lganda; 2. $a=0,8$ mm bo‘lganda; 3. $a=1$ mm bo‘lganda;

Har bir o‘zgarimas gaz sarflari uchun qurilmaga beriladigan chang miqdori gaz sarflariga mos holda $G_{ch}=4\div 20$ gram oralig‘ida miqdorlab uzatildi. Har bir gaz

tezligining o'zgarish qiymatida kontakt elementlariga shtutserlar orqali quyidagi sarf qiymatlari oralig'ida $Q_s=0,075\div 0,3$ m³/soat ($Q_s=0,075$ m³/soat qadam bilan) suv sepildi.

Har bir berilgan suv sarfida tozalash jarayoni 5 minut davom etgandan keyin qurilmaga o'rnatilgan filtrlar moslamadan olinib 5 kun davomida laboratoriyada quritildi.

O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning har bir rejimi uchun quritilgan filtrlar tarozida tortilib, dastlabki va tozalashdan keyingi og'irliklari farqidan qurilmaning tozalash samaradorligi aniqlandi. Samaradorlikni tajribaviy hisoblash ishlari apparatga kirayotgan va chiqayotgan konsentratsiyalariga bog'liq holda quyidagi formula yordamida amalga oshirildi

$$\eta = \frac{G_{ch} - G_{ch}^T}{G_{ch}} \cdot 100 \quad (18)$$

bunda G_{ch} -qurilmaga berilayotgan chang miqdori, gramm; G_{ch}^T -qurilmadan chiqib ketayotgan va filtrda ushlangan chang miqdori, gramm.

Rejimlar bo'yicha tozalash samaradorligini aniqlaymiz. Tozalash vaqti $t=5$ minut; gaz sarfi, $Q_g=11,75$ m³/soat; gaz tezligi, $\omega_g=5$ m/s; suv sarfi, $Q_s=0,075$ m³/soat, gidravlik qarshilik, $\Delta R=47$ Pa; qurilmaga berilayotgan chang miqdori, $G_{ch}=4$ gramm; qurilmadan chiqib ketayotgan va filtrda ushlangan chang miqdori, $G_{ch}^t=0,56$ gramm. Tajriba qiymatlarini o'rniga qo'yib, samaradorlikni hisoblaymiz.

$$\eta = \frac{G_{ch} - G_{ch}^T}{G_{ch}} \cdot 100 = \frac{4 - 0,56}{4} \cdot 100 = 86\%$$


Shu rejim bo'yicha suv sarfi maksimal $Q_s=0,3$ m³/soat, bo'lganda.

$$\eta = \frac{G_{ch} - G_{ch}^T}{G_{ch}} \cdot 100 = \frac{4 - 0,03}{4} \cdot 100 = 99,25\%$$

Korxonada ruxsat etilgan chegaraviy meyor RECHM=6 mg/m³ ni tashkil etadi. Olingan tajriba natijalari kompyuter dasturi orqali qayta ishlanib bog'liqlik grafiklari qurildi (9-13 rasmlar).

Dissertatsiyaning «Barabanli qurilmani sanoatda qo'llash va uning iqtisodiy samaradorligini baholash» deb nomlangan to'rtinchi bobida O'tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida tavsiya etilayotgan qurilmada "Turon eco cement group" MChJ da olib borilgan tajriba sinovlari keltirilgan. Quyidagi 14-rasmda tavsiya etilayotgan qurilma bilan jihozlangan korxonaning texnologik sxemasi keltirilgan.

Texnologik sxemada texnologik jihozlar quyidagi ketma-ketlikda joylashgan. 1-ohaktosh bunker, 2-bolg'ali maydalagich, 3-hom-ashyo tegirmoni, 4-tuproq bunker, 5-valikli maydalagich, 6-quritish barabani, 7-tuyilgan ohaktosh silosi, 8-tuyilgan tuproq silosi, 9-dekarbonizator, 10-aylanma pech, 11-klinker silosi, 12-gips silosi, 13-sement tuyish tegirmoni, 14-sement silosi, 15-siklon, 16-ho'l usulda chang tozalovchi qurilma, 17-shlam basseyn.



14-rasm. Turon eco cement zavodining texnologik sxemasi

O'tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'zgaruvchi omillarning o'zgarish oraliqlari belgilandi. 1-jadvalda omillarning sathlari va o'zgarish oraliqlari keltirilgan.

1-jadval

Omllarning sathlari va o'zgarish oraliqlari

№	Omllar	O'lchov birligi	Omllarni belgilanishi	O'zgarish oraliq'i	Omllarning sathlari		
					quyi (-1)	asosiy (0)	yuqori (+1)
1.	Changli gaz tezligi	m/s	X_1	10	5	15	25
2.	Suyuqlik sarfi	m ³ /soat	X_2	0,1125	0,075	0,1875	0,3
3.	Setka teshigi o'lchami	mm	X_3	0,2	0,6	0,8	1
4.	Barabanning aylanishlar chastotasi	ayl/min	X_4	5	15	20	25

Sanoat sinovlarini o'tkazishda quyidagi parametrlar changli gaz oqimi tezligi (X_1). Gaz tezligining qiymatlari $\omega_g=5\div 25$ m/s (5 m/s qadam bilan), suyuqlik sarfi (X_2) 4 dona **S32-412** markali shtuserlardan (teshigi o'lchami 1mm) $Q_s=0,075\div 0,3$ m³/soat (0,075 m³/soat qadam bilan), setka kvadrat teshigi o'lchami (X_3), kvadrat teshigi o'lchami $a=0,6\div 1$ mm (0,2 mm qadam bilan), setkali barabanning aylanishlar chastotasi (X_4), barabanning aylanishlar chastotasi $n=15\div 25$ ayl/min (5 ayl/min qadam bilan) tanlangan.

Tajriba natijalariga tegishli tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari "PLANEX" programmasining HARTLI-4 dasturi bo'yicha olindi.

Unga ko'ra:

Appartning gidravlik qarshiligi ΔP (Pa) quyidagi regressiya tenglamasi bo'yicha aniqlanadi.

$$\Delta P = 646 + 612x_1 + 71x_2 + 0,7x_3 + 14x_4 + 33x_1x_1 - 1,1x_2x_2 - 4,3x_3x_3 + 63,1x_4x_4 + 35x_1x_2 - 62,6x_1x_3 + 7x_1x_4 - 6,3x_2x_3 - 68x_2x_4 - 37x_3x_4 \quad (19)$$

Appartning tozalash jarayoni uchun sarflanadigan energiya quyidagi regressiya tenglamasi bo'yicha aniqlanadi, kJ/1000 m³

$$K_{ch} = 284 + 35x_1 + 1,1x_2 + 154x_3 + 183x_4 + 65x_1x_1 + 60x_2x_2 - 88x_3x_3 - 120x_4x_4 + 45,5x_1x_2 - 42x_1x_3 - 45x_1x_4 - 227x_2x_3 - 20x_2x_4 + 44x_3x_4 \quad (20)$$

Appartning tozalash samaradorligi quyidagi regressiya tenglamasi bo'yicha aniqlanadi, %

$$\eta = 99,61 - 0,27x_1 + 0,14x_2 + 0,09x_3 + 3x_4 + 0,6x_1x_1 + 0,64x_2x_2 + 0,3x_3x_3 - 2,1x_4x_4 + 0,33x_1x_2 - 0,18x_1x_3 + 0,06x_1x_4 - 1,9x_2x_3 + 0,18x_2x_4 - 0,26x_3x_4 \quad (21)$$

Tadqiq etilayotgan jarayonlarga tasir etuvchi omillar, yani qurilmaning gidravlik qarshiligi, tozalash samaradorligi va energiya iste'molining maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida (1), (2) va (3) regressiya tenglamalari. Shunday qilib, suglinka changini tozalash jarayoni uchun qurilmaning maqbul parametrlari standart holatga keltirildi va uni quyidagicha yozish mumkin.

Changli gaz tezligi, $v = 12,4$ m/s, suyuqlik sarfi $Q_c = 0,3$ m³/soat, Filtrlovchi setka kvadrat teshigi o'lchami, 0,6mm, setkali barabanning aylanishlar soni, 15 ayl/min.

Omillarning bu qiymatlarida qurilmaning energiya sarfi 1,385 kVt/soat, tozalash samadorligi 99,798% va gidravlik qarshiligi 700 Pa ni tashkil etdi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga asoslangan holda Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani Sho'rsuv posyolkasida joylashgan "TURON ECO CEMENT GROUP" MChJ korxonasi quritish sexida hosil bo'ladigan changlarni tozalash uchun tavsiya etilayotgan qurilmaning sanoat varianti loyihalandi.

XULOSA

1. Barabanli qurilmaning takomillashgan konstruksiyasi yaratildi va tajribalarni o'tkazish uchun fizik modeli tayyorlandi.

2. Qurilmaning gidrodinamik jarayonlari nazariy tadqiq etilib, umumiy gidravlik qarshilik koeffitsientini va yo'qotilgan umumiy bosimni hisoblovchi matamatik tenglamalar olindi.

3. Qurilmaga o'rnatilgan 3 xil o'lchamdagi kontakt elementlarining umumiy qarshilik koeffitsientlari aniqlandi. Unga ko'ra setka kvadrat teshigi o'lchami $a = 0,6$ mm, bo'lganda, $\xi_s = 2$; $a = 0,8$ mm bo'lganda, $\xi_s = 1,8$; $a = 1,0$ mm, bo'lganda $\xi_s = 1,6$ ni tashkil etdi.

4. Qurilmaning gidravlik qarshiligini tozalash samaradorligiga tasiri o'rganildi va tozalangan gaz tarkibidagi changning qoldiq konsentratsiyasi GOST SSBT 12.1.005-88 "Ish joyidagi havo uchun umumiy sanitariya-gigiena talablari" da belgilangan me'yor RECHM-6 mg/m³ dan kichik bo'lib, sanitariya me'yorlarini qanoatlantirdi.

5. Qurilmada 1m³ havoni tozalash uchun sarflanadigan suyuqlik sarfi 0,86 litrni tashkil etib mavjud qurilmalarga nisbatan 5 barobarga, elektr energiyasi 2,5 barobarga kam sarflanishiga erishildi.

6. Olingan tajriba natijalariga matematik rejalashtirish usulini qo'llab, qurilmaning maqbul parametrlari asoslandi va unga ko'ra "Turon eco cement group"

MChJ korxonasi quritish sexida hosil bo'ladigan changlarni tozalash uchun tavsiya etilayotgan qurilmaning sanoat varianti loyixalandi.

7.Yaratilgan qurilmani ishlab chiqarishga joriy qilishdan kelayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 85163561 so'mni tashkil etadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ
СОВЕТЕ DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАДАМИНОВА ГУЛМИРАХОН ИКРОМАЛИЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
БАРАБАННОГО УСТРОЙСТВА ДЛЯ ОЧИСТКИ ПРОМЫШЛЕННОЙ
ПЫЛИ МОКРЫМ СПОСОБОМ**

**02.00.16 – Специальность «Химическая технология, процессы и аппараты пищевых
производств»**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган– 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.PhD/T4123.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:	Тожиев Расулжон Жумабоевич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Носирова Шаира Нармурадовна доктор технических наук, профессор Примов Туйчи Жумаевич кандидат технических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «11» октябрь 2025 г. в «10⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.03/29.08.2023.К/Т.66.02 при Наманганский государственный технический университет (Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансай, 7. Тел.: (69) 234-14-85, факс: (69) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Наманганский государственный технический университет, б-здание, 1-этаж, ауд. 303).

Диссертация зарегистрирована в информационно-ресурсном центре Наманганский государственный технический университет за № 64, с которым можно ознакомиться в ИРЦ. Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел.: (69) 234-14-85, факс: (69) 234-14-85.

Автореферат диссертация разослан «24» сентябрь 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 34 от «24» сентябрь 2025 года)

О.К.Эргашев
Председатель разового научного совета
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., профессор

О.Т. Маллабаев
Ученый секретарь разового научного совета
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.х.н., доцент

О.Ю.Исмаилов
Председатель разового научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктор философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире за счет быстрого развития промышленности, одним из приоритетных направлений становится применение средств предотвращения выбросов в атмосферу большого количества пыли, вторичных газов, различных отходов и вредных газовых смесей, образующихся на предприятиях и выбрасываемых в атмосферу без достаточной очистки. В мировом масштабе образующаяся пыль и вредные газы накапливаются в верхних слоях атмосферы, что представляет серьезную угрозу для окружающей среды, в связи с этим возникает необходимость внедрения в практику современных устройств для очистки атмосферного воздуха от различных видов пыли и вредных веществ, особенно в районах, прилегающих к промышленным предприятиям. С этой точки зрения создание простых по конструкции и энергоэффективных устройств для осуществления процессов очистки воздуха имеет важное значение в данном направлении.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на очистку атмосферы от твёрдых, мелкодисперсных частиц пыли, вторичных газов и различных отходов, создание усовершенствованных очистных устройств, а также повышение их производительности и эффективности на основе энергосберегающих технологий. В этом направлении особое внимание уделяется научно-практическим исследованиям, выполняемым по приоритетным направлениям, таким как эффективная организация процессов очистки от пыли, вторичных газов и различных отходов, а также разработка технологий глубокой переработки улавливаемых масс.

В нашей Республике осуществляются широкомасштабные мероприятия, направленные на ускорение процессов очистки атмосферного воздуха от вредной пыли, вторичных газов и различных отходов, а также на выведение переработки улавливаемых компонентов на качественно новый уровень путём внедрения инновационных технологий в промышленную практику. Особое внимание уделяется созданию технологических процессов и устройств для очистки пыльного воздуха, сточных вторичных вод в пищевой, химической и строительной промышленности, а также в хлопковой отрасли, при этом уже достигнуты определённые результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи «Устранение существующих экологических проблем, наносящих ущерб здоровью населения и генофонду¹». В реализации данных задач особое значение приобретают научные исследования, направленные на совершенствование процессов очистки атмосферного воздуха от вредной пыли, вторичных газов и различных отходов, а также на создание высокоэффективных устройств.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлениях Президента

¹ Указ Президента Республики Узбекистан "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы" №УП-60 от 28 января 2022 года

Республики Узбекистан No ПП-3236 от 23 августа 2017 года «О программе развития химической промышленности на 2017-2021 годы», ПП-3956 от 3 октября 2018 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы государственного управления в сфере экологии и охраны окружающей среды» и Постановление Кабинета Министров от 26 ноября 2018 года 958 «О мерах по дальнейшему развитию научно-исследовательской базы в сфере экологии и охраны окружающей среды», 6 июля 2022 г.в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-307 «О Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» и других нормативно-правовых документах, касающихся деятельности в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование проводилось в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII «Химическая технология и нанотехнологии».

